



UDK: 801.82:81.127

Zuxriddin SAYFULLAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti stajor o'qituvchisi
E-mail: sayfullayevzuxriddin@gmail.com

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD O'.Xudonazarova taqrizi asosida

YAKKABOG' TUMANI TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA HUDUDDAGI GIDRONIMLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi ayrim joy nomlarining shakllanish bosqichlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Yakkabog' tumanidagi joy nomlari tarkibida alohida o'ringa ega bo'lgan suv havzalari nomlarining shakllanish va rivojlanish jarayonlari atroflicha yoritib beriladi. Toponimlarning yillar davomida shakllanib, boyib borish jarayonlariga to'xtalib o'tiladi. Ushbu jarayonda joy nomlarining shakllanish va taraqqiy etib borishi tarixiy manbalar ma'lumotlariga asoslangan holda bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Yakkabog' tumani, toponimlar, suv havzalari nomlari, tub joy aholi, relyef, tabiiy joylashuv, etimologiya.

ЗНАЧЕНИЕ ГИДРОНИМОВ В ФОРМИРОВАНИИ ТОПОНИМОВ ЯККАБАГСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В данной статье рассматриваются этапы формирования некоторых географических названий Яккабагского района Кашкадарьинской области. Подробно освещаются процессы возникновения и развития названий водных объектов, занимающих особое место в структуре топонимов Яккабагского района. Отмечаются процессы постепенного формирования и обогащения топонимов на протяжении многих лет. В ходе исследования формирование и развитие географических названий раскрываются на основе данных исторических источников.

Ключевые слова: Яккабагский район, топонимы, названия водных объектов, коренное население, рельеф, природное расположение, этимология.

THE IMPORTANCE OF HYDRONYMS IN THE FORMATION OF TOPONYMS OF YAKKABOG DISTRICT

Annotation

This article examines the stages of formation of certain place names in the Yakkabog District of Kashkadarya Region. It provides a detailed analysis of the processes of formation and development of the names of water bodies, which hold a special place in the structure of the district's toponyms. The paper also discusses the gradual formation and enrichment of toponyms over the years. The formation and development of place names are explained based on data from historical sources.

Key words: Yakkabog District, toponyms, names of water bodies, indigenous population, relief, natural location, etymology.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda insonning o'zini o'rab turgan tevarak olamni bilishga bo'lgan qiziqishi kundan kunga ortib bormoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi Toponimika sohasi ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Joy nomlarining o'rganilishi bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Nega deganda biz yashayotgan hududning nomlanishi, bu bizning tariximiz, o'tmishimiz, kechagi kunimiz bilan bevosita bog'liq jarayondir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda toponimika sohasida olib borilgan tadqiqotlar asosan joy nomlarining kelib chiqishi, ularning lingvistik, tarixiy hamda geografik jihatlari o'rganishga qaratilgan. Mazkur yo'nalishda A.Abdurahmonovning "O'zbek toponimikasi asoslari" (1980) asari o'zbek toponimik tizimining ilmiy-nazariy poydevorini yaratgan fundamental manba sifatida alohida o'rin tutadi. Muallif o'z asarida toponimlarning shakllanishida tabiiy-geografik omillar, ayniqsa, gidronimlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, suv havzalari nomlarining xalq tilida saqlanib qolish jarayonlarini ilmiy tahlil qiladi [1].

Shuningdek, H.Hasanovning "Toponimika va geografik nomlar tarixi" (1992) nomli asarida toponimlarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning milliy madaniyat va xalq

tarixi bilan uzviy bog'liqligi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi [2].

S.Nazarovning "O'zbek toponimiyasi: nazariy va amaliy masalalar" (2001) asarida esa o'zbek toponimikasining metodologik asoslari, toponimlarning tasnifi, etimologik tahlil usullari keng yoritilgan. Muallif toponim va gidronimlar o'rtasidagi o'zaro semantik bog'liqlikni izohlab, suv havzalari nomlarining toponimik tizimdagi o'rini ilmiy dalillar asosida ko'rsatadi [5].

Q. Qodirovning "Qashqadaryo viloyati geografiyasi va toponimiyasi" (2010) asari esa mintaqaviy toponimik tadqiqotlar orasida muhim o'ringa ega. Unda Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik sharoiti, relyefi, daryo va soylarning nomlanish jarayonlari bilan bog'liq mahalliy toponimlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, Yakkabog' tumani hududidagi suv manbalariga oid toponimlar (soy, buloq, ariq, daryo nomlari)ning lug'aviy ildizlari, ularning tarixiy o'zgarishlari haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar keltiriladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Yakkabog' tumani toponimlarining shakllanishida hududdagi gidronimlarning ahamiyatini yoritib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yakkabog' tumani tabiiy-geografik joylashuvi jihatidan Qashqadaryo vohasining janubiy qismida, Zarafshon tizmasining tog' etaklari va adir hududlarida joylashgan bo'lib, bu yerda ko'plab daryo, soy, buloq, ariq va ko'l tizimlari mavjud. Ana shu gidronimlar – suv bilan bog'liq nomlar – o'z navbatida hududdagi ko'plab toponimlarning shakllanishi va nomlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. “Yakkabog'” so'zining o'zi ham etimologik jihatdan “yakka” (bir, yagona) va “bog'” (suvli, yashil o'simlikli joy) so'zlaridan tarkib topib, “suvli, hosildor, yashil manzarali yagona bog'” ma'nosini bildiradi [6].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yakkabog' toponimik tizimida suv obyektlari nomlari asosida yuzaga kelgan joy nomlari miqdoran ham, semantik jihatdan ham muhim o'ringa ega. Xususan, Yakkabog', Qoratepa, Soybo'yi, G'uzordaryo, Qizilsuv, Childuxtaronsoy, Oqtepa, Arnasoy kabi joy nomlarida “soy”, “suv”, “bog'”, “ariq”, “buloq” komponentlari mavjud. Xususan, “Qizilsuv” toponimi suvning tuproq tarkibi ta'sirida qizg'ish tusga ega bo'lishi bilan bog'liq. “Soybo'yi” esa bevosita suv manbasi yonida joylashgan aholi maskanining geografik xususiyatini aks ettiradi [7].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, gidronim asosidagi toponimlar quyidagi turlarga ajraladi:

Tabiiy holatni ifodalovchi toponimlar: Buloqboshi, Soybo'yi, Qizilsuv, Ariqbo'yi, Oqsoy kabilar bevosita suv manbasining mavjudligi yoki unga yaqinlikni bildiradi;

Suvning xususiyatidan kelib chiqqan toponimlar: Sersuv, Qizilsuv, Sovuqbuloq, Shirinsoy kabi nomlar suvning rangi, ta'mi yoki haroratiga asoslanadi;

Suv atrofidagi flora va fauna nomlariga asoslangan toponimlar: Teraksoy, Qamishsoy, O'rikbuloq, Qaldirg'ochbuloq kabi nomlar suv manbasi atrofiga xos o'simlik yoki qush nomi bilan bog'liq;

Tarixiy va etnik mazmunga ega gidronimlar asosidagi toponimlar: Arabariq, Qirg'izsoy, Boybuloq, Shabgardaryo kabi joy nomlari etnik guruhlar, shaxslar yoki tarixiy voqealar bilan aloqador [6].

Tilshunoslik tahlillari shuni ko'rsatadiki, suv manbalariga oid toponimlar o'zbek tilining leksik, fonetik va semantik taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Ularning ayrimlari qadimiy turkiy ildizlarga borib taqaladi (buloq, soy, ariq kabi), boshqalari esa keyingi davrlarda xalq og'zaki nutqi orqali shakllangan. Bundan tashqari, Yakkabog' hududida suv manbalari atrofida aholi punktlari joylashganligi sababli gidronimlar toponimik tizimning markaziy yadrosi sifatida shakllangan. Har bir suv obyektining nomi keyinchalik qo'shni hududlar, dalalar, mahallalar va hatto maktab, korxona nomlariga ham asos bo'lgan [4].

Quyida Yakkabog' tumanida joylashgan bir qator toponim va gidronimlarning lingvistik tahlili keltirib o'tilgan:

Bo'tasoy toponimi tarkiban bo'ta (tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi yoki totemik ramz) va soy (tog' jilg'asi) so'zlaridan tuzilgan. Bu nom totemik qarashlar bilan bog'liq bo'lib, qadimiy aholi e'tiqodida hayvonlar nomining muqaddaslashtirilgan shaklda joy nomlariga singib ketganini bildiradi. Shu bilan birga, “bo'ta” so'zi fors-tojik tilida “past, shoxlab o'sadigan buta” ma'nosida ishlatilgani sababli, bu joyda butalar ko'p o'sgan soylik – Butasoy shaklida ham talqin qilinadi. H.Hasanov o'zining “Toponimika va geografik nomlar tarixi” (1992) asarida aynan shunday ikki qavatli semantik talqinlar toponimlarning tarixiy ildizlarini ochishda muhim manba ekanini ta'kidlaydi [3].

Ko'ltepa toponimi ham tabiiy suv obyektlari bilan bevosita bog'liq. Nom tarkibidagi ko'l suvi to'planuvchi joyni, tepa esa suv bo'yidagi balandlikni anglatadi. Bu nom, ehtimol, qadimiy qo'rg'on yoki xandaq o'rnida joylashgan, suv bilan to'lgan hududni ifodalagan. Q. Qodirov “Qashqadaryo viloyati geografiyasi va toponimiyasi” (2010) asarida shunday

xulosaga keladi: “Tuman toponimlari relyef bilan bog'liq holda shakllanib, suv manbalarining yaqinligi ularning nomlanishida asosiy rol o'ynaydi” [6].

Oqsoy gidronimi esa suvning fizik holatini emas, balki uning sifat va miqdorini bildiradi. Oq – “oqmoq” fe'ldan kelib chiqib, doimiy, suvi qurimaydigan jilg'ani anglatadi. Soy esa kichik daryo yoki irmoq ma'nosini beradi. Shunday qilib, Oqsoy – suvi ko'p, oqib turuvchi jilg'a, keyinchalik shu jilg'a bo'yidagi aholi manzili nomi sifatida mustahkamlangan.

Serob nomi esa fors-tojikcha ser (ko'p) va ob (suv) so'zlaridan tashkil topib, “suvga boy joy” ma'nosini bildiradi. Qadimiy manbalarda bu so'z “Sariob” yoki “Sarob” shaklida uchraydi. Bu holat o'zbek toponimik tizimining tarixiy qatlamlarida o'zgarish jarayonlarini ko'rsatadi. A.Abdurahmonov bu jarayonni “fonetik va morfologik assimilyatsiya natijasida toponimlarning yangi fonetik shaklga o'tishi” sifatida izohlaydi [1].

Sovuqbuloq toponimi esa suv manbalarining harorat va hajm xususiyatlariga asoslangan. Nomdagi sovuq komponenti suvning harorati va miqdorini, buloq esa yer ostidan chiqadigan tabiiy suv manbasini bildiradi. Demak, Sovuqbuloq – “ko'p suvli, chuqur buloq” ma'nosida shakllanib, aholi tomonidan suv manbasi bo'yida tashkil etilgan qishloq nomiga aylangan.

Suvlisoy toponimi ham shunga o'xshash tuzilishga ega: suv (oqimli suyuqlik) + -li (egallikka ishora qiluvchi qo'shimcha) + soy (jilg'a, irmoq). Bu nom suv manbalarining serobligi bilan ajralib turgan soylarni bildiradi. H.Hasanovning ta'kidlashicha, “suvli, serob, buloqli kabi gidronimik komponentlar toponimlar tarkibida tabiiy boylikni aks ettiruvchi ifoda vositasidir”. Shu sababdan, Suvlisoy nomi o'zining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi bilan suv resurslari boyligini ifoda etadi [2].

Keltirib o'tilgan toponimlarning ko'pchiligi To'ra Nafasovning “Qashqadaryo qishloqnomasi”, “Qishlog'ingiz nega shunday atalgan”, “O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati”da ham ko'rsatib o'tilgan. Ushbu manbalarining ma'lumotlariga tayangan holda aytishimiz mumkinki toponimlarning nomlanishida bir qator xususiyatlar e'tiborga olingan. Xususan, toponimlarning suv havzalariga yaqin joyda joylashganligi, tabiiy sharoitning e'tiborga olinganligi, ushbu hududning tarixiy shakllanish bosqichlari, ushbu hudud haqidagi tarixiy ma'lumotlar, hududning tabiiy relyef xususiyatlari kabi bir qator jihatlar e'tiborga olingan. Toponimlarning nomlanishida suv havzalari bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'rni beqiyosdir.

Yakkabog' tumani toponimlari tarkibida suv bilan bog'liq nomlarning salmog'i yuqori bo'lib, ular hududning tabiiy sharoiti, relyefi va qadimiy manzillari haqida muhim ma'lumot beradi. Quyidagi tahlillar tuman toponimikasidagi ayrim gidronimik nomlarning shakllanishi va semantik mohiyatini yoritadi:

Tezob toponimi tarkib jihatidan “tez” va “ob” unsurlaridan tashkil topgan bo'lib, hozirgi ko'rinishdagi izohlar uni “tez oqar suv” ma'nosida talqin etadi. Biroq bu nomning qadimiy shakli “diz/ dez + ob” bo'lib, sug'd tilidagi “diz” – “qo'rg'on”, “ob” esa “suv, daryo” ma'nolarini bildiradi. Demak, Tezob aslida “qo'rg'on yonidan oqadigan jilg'a” ma'nosini anglatgan. Ushbu izoh fonetik o'zgarishlar natijasida “dizob” shaklining “tezob” ko'rinishiga aylanganini ko'rsatadi. Bu holat tuman toponimiyasida qadimiy sug'd qatlamining mavjudligidan dalolat beradi [3].

Tutbuloq qishlog'i nomi “tut” va “buloq” so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan. Dastlab bu atama faqat buloq nomi sifatida qo'llanilgan, keyinchalik shu manba atrofida tashkil topgan manzilgoh qishloq nomiga aylangan. Tut daraxti o'zining uzoq umr ko'rishi va soyasi bilan qadrlanganligi sababli, u buloq nomiga ko'chib, “Tutbuloq”

shaklini hosil qilgan. Bu toponimning shakllanishida tabiiy va antropogen belgilar birlashganini ko'rish mumkin.

Chillabuloq toponimi "chilla" (fors-tojikcha – yara, toshma) va "buloq" so'zlaridan iborat bo'lib, xalq og'zaki an'analarida buloq suvi shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan manbani bildirgan. Ya'ni, Chillabuloq – "yarani tuzatuvchi, mineralli suvli buloq" ma'nosini anglatadi. Bunday tibbiy-folklor qarashlar xalq toponimikasida tabiiy obyektlarga diniy va shifobaxsh mazmun yuklash holatini namoyon etadi [4].

Chimbuloq qishlog'i nomi esa "chim" va "buloq" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, chim – o't ildizlari bilan zichlashgan yer qatlamini bildiradi. Shundan kelib chiqib, Chimbuloq "chimli, o't o'sgan joydan chiqadigan buloq" ma'nosida qo'llanilgan. Ushbu toponimning vujudga kelishida tabiiy relyef xususiyati va dehqonchilik faoliyati asosiy omil bo'lgan.

Ushbu toponimlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yakkabog' tumani toponimlari tarkibidagi yuqoridagi nomlarning barchasi suv, daryo, buloq kabi

gidronimik asoslar bilan shakllangan bo'lib, ular o'z navbatida hududning tabiiy geografik tuzilishi, qadimiy sug'dcha qatlamlar, xalq dunyoqarashi va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir [7].

Xulosa va takliflar. Toponimlarning paydo bo'lishi hamda taraqqiy etib borish jarayoni murakkab jarayondir. Ushbu jarayonning shakllanishi bir qator omillarga asoslanadi. Avvalo, hududning tabiiy joylashuvi, hudud aholisining mashg'ulot tarzi, hududning tarixiy ildizlari va boshqa bir qator belgilarga asoslanadi. Mana shunday bir qator belgilariga ko'ra Yakkabog' tumani toponimlari tarkibidagi suv havzalari nomlarining ayrimlarining shakllanish bosqichlari ko'rib o'tildi. Umuman olganda, Yakkabog' tumanining gidronimlarga asoslangan toponimlari nafaqat geografik manzara xususiyatlarini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va tarixiy xotirasini ham aks ettiruvchi madaniy-tarixiy manba sifatida muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A. O'zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1980. – 167 b.
2. Hasanov H. Toponimika va geografik nomlar tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 218 b.
3. Jo'rayev A. Yakkabog' tumanidagi toponimlarning lug'aviy va ma'naviy xususiyatlari. // Ilmiy maqola. – Qarshi davlat universiteti ilmiy jurnali, 2021. – B. 122-127.
4. Karimov U. Qashqadaryo toponimlarining lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – B. 62-69.
5. Nazarov S. O'zbek toponimiyasi: nazariy va amaliy masalalar. – Toshkent: Universitet, 2001. – 126 b.
6. Qodirov Q. Qashqadaryo viloyati geografiyasi va toponimiyasi. – Qarshi: "Nasaf", 2010. – 318 b.
7. Yusupov S. O'zbekistonda joy nomlari va hujjat lingvomadaniy tahlili. – Toshkent: "Akademnashr", 2018.